



RAQAMLAR:

- Qurilish-montaj ishlari hajmi – **525,9** mlrd. so'm
- Yirik qurilish pudrat tashkilotlarining ulushi – **4,5 foiz**
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar – **70,9 foiz**
- Qurilishda norasmiy sektorning ulushi – **24,6 foiz**


Qurilish ishlari

2018 yil yanvar-oktyabr oylari


Joriy yilning yanvar-oktyabr oylarida viloyatda 525,9 mlrd. so'mlik **qurilish-montaj ishlari** bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,5 foizni tashkil etdi va 2017 yilning mos davriga nisbatan 6,5 foiz punktga o'sgan.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 23,7 mlrd. so'mni yoki 95,6 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,4 foiz punktga pasaygan.

Ko'pgina shahar va tumanlarda o'tgan yilning mos davriga nisbatan yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmini kamayishi kuzatildi. Shu jumladan, Shirin shahrida qurilish - pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1,3 mlrd. so'mni, o'sish sur'ati 24,9 foizni, mos ravishda, Mirzaobod tumanida – 5,1 mlrd. so'm yoki 79,7 foizni tashkil etdi.




**Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati
2018 yil yanvar-oktyabr uchun**



**2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari
quyidagicha ifodalanadi:**

	<i>Jami</i>	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>
Viloyat bo'yicha	525,9	106,5
Guliston sh	173,0	122,3
Shirin sh	28,2	115,7
Yangier sh	44,0	100,1
Boyovut	41,2	104,5
Guliston	29,0	100,1
Mirzaobod	45,5	101,7
Oqoltin	34,8	109,0
Sardoba	15,0	101,2
Sayxunobod	22,6	127,1
Sirdaryo	59,0	102,4
Xovos	33,6	69,2


**2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida qurilish ishlari
umumiy hajmida hududlarning ulushi
(umumiy hajmga nisbatan %da)**



Hududlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Guliston shahrida bajarilgan bo`lib, viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining 32,9 % tashkil etdi, Sirdaryo tumanida 11,2 % ni, Mirzaobod tumanida 8,7 % ni va Yangier shahrida bajarilgan qurilish ishlari 8,4 % ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo`yicha past ko`rsatkichlar: Sardoba tumanida bu ko`rsatkich eng past 2,9 % ni va Sayxunobod tumanida 4,3 % ni tashkil etdi.

**Yanvar - oktyabr oylarida faoliyat turlari bo'yicha qurilish
ishlari (mlrd.so`m)**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 71,8% ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 2,4 % punktga ko'paydi.


Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 17,4% ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,6 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 10,8 % to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,8 % punktga kamaydi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi





2017 yil yanvar-oktyabr oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Mulkchilik shakllari

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 490,3 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 93,2 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,0 foiz punktiga o'sdi.



Sirdaryo viloyat statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

G.Muxraximova
(0371) 230-86-27